"ADOLAT"
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

"HUQUQ va BURCH+" —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=393

2026-yil
10-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishning nazariy yondashuvlari

Azim Sattarov,
O‘zbekiston Bosh prokuraturasi
Boshqarma katta prokurori, adliya maslahatchisi
e-mail: saidiovichazim@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada energetika sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bartaraf etishning nazariy yondashuvlari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Unda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning funksional tahlili davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va davlat ulushi yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga asoslangan.Shu bilan birgalikda, Korrupsiya xavflarini aniqlash, baholash va prognoz qilish orqali korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish bo‘yicha yondashuvning xalqaro standartlarga moslashuvi korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash va bartaraf etish profilaktik sikllari asosida tashkil qilinishi keltirilgan.

Калит сўзлар. energetika, korrupsiya, davlat dasturlari, investitsiya loyihalari, byudjet mablag‘lari, subsidiyalar, energiya samarador texnologiyalarni xarid qilish, energiya auditi.

Аннотация. В данной статье представлена информация о теоретических подходах к устранению коррупционных правонарушений в сфере энергетики. В нем функциональный анализ коррупционных рисков основан на методологии выявления и оценки коррупционных рисков в деятельности органов государственной власти и управления, государственных учреждений и организаций с высокой долей государства.Вместе с тем, приведено, что адаптация подхода к устранению коррупционных факторов к международным стандартам путем выявления, оценки и прогнозирования коррупционных рисков организуется на основе профилактических циклов выявления и устранения коррупционных рисков.

Ключевые слова. энергетика, коррупция, государственные программы, инвестиционные проекты, бюджетные средства, субсидии, закупка энергосберегающих технологий, энергоаудит.

Annotation. This article provides information on theoretical approaches to eliminating corruption-related offenses in the energy sector. In it, the functional analysis of corruption risks is based on a methodology for identifying and assessing corruption risks in the activities of state authorities

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

and administration, state institutions, and organizations with a high state share.At the same time, the adaptation of the approach to eliminating corruption factors to international standards through the identification, assessment, and forecasting of corruption risks is organized based on preventive cycles for identifying and eliminating corruption risks.

Keywords. energy, corruption, state programs, investment projects, budget funds, subsidies, procurement of energy-efficient technologies, energy audit.

Mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali energiya samaradorligini oshirish va uning barqarorligini mustahkamlash har qanday davlatning energiya, ekologiya va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qiladi hamda mamlakat rivojlantirishi uchun kompleks vazifa hisoblanadi.

Energetika sohasida davlat dasturlari va investitsiya loyihalarini shakllantirish, byudjet mablag‘lari va subsidiyalarni taqsimlash, energiya tejamkor texnologiyalarni xarid qilish, energiya servis kompaniyalarini jalb etish, energiya auditi va energetika ekspertizasini o‘tkazish, texnik nazoratni amalga oshirish hamda erishilgan tejamkorlik natijalarini baholash kabi o‘zaro bog‘liq jarayonlar mavjud. O‘zbekiston Respublikasining “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qonuni mazkur munosabatlarning huquqiy asoslarini, jumladan energiya servis kompaniyalari, energiya auditi, dastur va loyihalarni moliyalashtirish, monitoring, davlat nazorati va axborot ta'minoti mexanizmlarini belgilagan [1].

Energiya samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan loyihalarning texnik murakkabligi va katta moliyaviy qiymati ularni korrupsiya xavfi nuqtayi nazaridan alohida o‘rganishni talab qiladi. Chunki texnik xususiyatlarni belgilash, bazaviy iste'molni hisoblash, kutilgan energiya tejamini prognozlash, uskuna yoki pudratchini tanlash va natijani tasdiqlashda axborotning bir qismi faqat tor doiradagi mutaxassislarga ma'lum bo‘lishi mumkin. Natijada qaror qabul qiluvchi va qaror natijasidan manfaatdor subyektlar o‘rtasida axborot asimmetriyasi yuzaga keladi. Agar ushbu asimmetriya keng diskretsion vakolat, manfaatlar to‘qnashuvi va nazoratning zaifligi bilan birlashsa, korrupsiyaviy imkoniyatlar sezilarli darajada ortadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan va sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish sifatida belgilaydi. Qonunning amaldagi tahriri korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, xavflar xaritasini shakllantirish, davlat xaridlari, ma'muriy tartib-taomillar va manfaatlar to‘qnashuvi sohalarida profilaktik choralarni belgilashga alohida e'tibor qaratadi. Shu sababli energiya tejamkorligi sohasida korrupsiyaga qarshi kurashishni faqat sodir etilgan jinoyatni aniqlash yoki aybdorni jazolash bilan cheklash

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ilmiy va amaliy jihatdan yetarli emas [2,3].

Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, energiya tejamkorligi va energiya samaradorligini oshirish sohasida korrupsiya xavfi biror-bir yagona omilning mavjudligi bilan emas, balki katta iqtisodiy manfaat, diskretsion vakolat, texnik axborot asimmetriyasi, manfaatlar to‘qnashuvi va hisobdorlikning yetarli emasligi bir jarayonda to‘plangan hollarda yuqori darajaga chiqadi. Shuning uchun korrupsiyani bartaraf etish ham bitta chora – jazoni kuchaytirish, ish haqini oshirish, raqamlashtirish yoki axloqiy tarbiya bilan cheklanmasdan, bir-birini to‘ldiruvchi huquqiy, institutsional, iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy mexanizmlar majmuasiga asoslanishi kerak.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlar funksional tahlil hozirgi kunda Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat muassasalari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyotiga asoslansada, tadqiqot energiya samaradorligi loyihasining quyidagi hayotiy siklida: “**rejalashtirish → moliyalashtirish → xarid va kontragentni tanlash → loyihani amalga oshirish → energiya auditi va texnik nazorat → obyektni qabul qilish → tejamkorlik natijasini hisoblash → monitoring va qayta baholash**” korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etishning nazariy yondashuvlarni quyidagicha bo‘lish orqali tahlil qilishimiz mumkin [4,5]**:**

1. Iqtisodiy omillarni bartaraf etish. Korrupsiyaning iqtisodiy sabablarini izohlashda amerikalik tadqiqotchi olim Gari Bekker tomonidan ishlab chiqilgan huquqbuzarlikning iqtisodiy modeli muhim nazariy asos hisoblanadi. Uning yondashuviga ko‘ra, huquqbuzar shaxs qonunga xilof harakatdan kutilayotgan foydani uning aniqlanish ehtimoli va jazoning kutilayotgan qiymati bilan taqqoslaydi; shu ma'noda huquqbuzarlik ma'lum sharoitda ratsional tanlov natijasi sifatida qaraladi [6].

Energiya samaradorligi sohasida bu yondashuv xarid narxini sun'iy oshirish, subsidiyani noqonuniy ajratish yoki energiya auditi xulosasini manfaat evaziga o‘zgartirish kabi holatlarni tushuntirishda ifodalashimiz mumkin.

Biroq mazkur modelni korrupsiyaning universal izohi sifatida qabul qilish mumkin emas. Chunki korrupsiya har doim ham yakka shaxsning foyda va jazo ehtimolini hisoblashi natijasi emas.

2. Diskretsion vakolat, monopoliya va hisobdorlikdagi korrupsion omillarni bartaraf etish. Amerikalik olim Robert Klitgard korrupsiya xavfini tushuntirishda institutsional jihatdan ta'sirchan bo‘lgan “C = M + D – A” modelini ommalashtirgan: korrupsiya (C) monopoliya (M) va diskretsiya (D) yuqori, hisobdorlik (A) esa past bo‘lgan muhitda kuchayadi. Bu formula matematik qonuniyat emas, balki korrupsiyaviy imkoniyatlarni tahlil qilishga xizmat qiluvchi konseptual vositadir deb izohlaydi [7].

Energiya tejamkorligi sohasida ushbu yondashuv, ayniqsa, subsidiya oluvchini tanlash, energiya auditi natijasini qabul qilish, energiya servis shartnomasi bo‘yicha kontragentni tanlash, texnik

talablarni belgilash, qurilish yoki modernizatsiya natijasini qabul qilish va nazorat chorasini qo‘llash kabi jarayonlarda ahamiyatli. Agar bir subyekt qaror qabul qilish mezonlarini belgilasa, hujjatlarni baholasa va yakuniy natijani ham o‘zi tasdiqlasa, funksiyalar konsentratsiyasi korrupsiya xavfini oshiradi.

3. Prinsipal-agent modeli va kollektiv harakat konsepsiyasida ko‘tariladigan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish. Klassik korrupsiya nazariyalarining katta qismi “prinsipal-agent” mantig‘iga tayanadi: davlat yoki jamoat manfaatini ifoda etuvchi prinsipal muayyan vakolatni agentga beradi, agent esa axborot ustunligidan foydalanib, o‘z manfaati uchun vakolatni suiiste'mol qilishi mumkin. Mazkur modelda nazorat, audit, sanksiya va rag‘bat tizimi agentni prinsipal manfaatiga mos harakat qilishga undash vositasi sifatida ko‘riladi.

4. Energetika sohasiga xos korrupsiya determinantlari. Energiya tejamkorligi sohasida mazkur umumiy energetik omillarga yana bir xususiyat – natijani o‘lchash va sababiy ta'sirni ajratish murakkabligi qo‘shiladi. Masalan, modernizatsiyadan keyin elektr energiyasi iste'moli 20 foizga kamaygan bo‘lishi mumkin, ammo shu davrda ishlab chiqarish hajmi 30 foizga qisqargan bo‘lsa, iste'mol pasayishini to‘liq energiya samaradorligi natijasi sifatida ko‘rsatish noto‘g‘ri bo‘ladi. Bunday texnik murakkablik soxta hisobot yoki manipulyatsiyani oddiy nazoratchilar uchun aniqlashni qiyinlashtiradi.

5. Institutsional mustaqillik va sohaviy islohot. “Xususiylashtirish korrupsiyani avtomatik kamaytiradi” degan universal xulosa chiqarish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas. Davlat monopoliyasi o‘rniga xususiy monopoliya paydo bo‘lishi, xususiy ishtirok esa shaffof bo‘lmagan tartibga solish yoki siyosiy aloqalar bilan birlashganda yangi korrupsiyaviy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sabab ushbu tadqiqotning energiya samaradorligi uchun asosiy ahamiyati mulk shaklining o‘zida emas, balki institutsional mustaqillik, qarorlarning tekshirilishi, raqobat va hisobdorlikning ahamiyatidadir.

6. Korrupsiyaviy normalarni bartaraf etish. Korrupsiyaviy xavflarning huquqiy determinantlari sifatida normaning noaniqligi, o‘zaro ziddiyatli talablar, ortiqcha ruxsat berish tartiblari, qaror mezonlarining belgilanmaganligi va haddan tashqari keng diskretsiya ko‘rsatilishi mumkin. Biroq har qanday huquqiy bo‘shliq avtomatik tarzda korrupsiyani keltirib chiqarmaydi; u korrupsiya uchun imkoniyatni oshiruvchi shart bo‘lib, manfaat va nazorat zaifligi bilan birlashganda real xavfga aylanadi.

7. Tashkiliy masalalardagi korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish. Tashkiliy masalalardagi korrupsiyaviy omillar davlat organlari va tashkilotlarda vakolatlar taqsimoti, boshqaruv qarorlari, ichki nazorat, komplayens va kadrlar siyosati bilan bog‘langan. Ushbu yondashuv to‘g‘ri, ammo energiya tejamkorligi sohasida uni funksional jarayonlarga bog‘lash zarur. Eng yuqori tashkiliy xavflardan biri – loyihani tashabbus qilish, texnik talabni belgilash,

pudratchini tanlash, ishni nazorat qilish va natijani qabul qilish funksiyalarining bir shaxs yoki bir bo‘linmada konsentratsiyalashuvidir.

Ichki audit va komplayensning vazifasi faqat sodir etilgan qoidabuzarlikni tekshirish emas, balki jarayon dizaynidagi xavf nuqtalarini oldindan aniqlashdir. Korrupsiya xavflarini baholash metodologiyasida vazifa va funksiyalar kesimida xavflarni aniqlash, ularning darajasini baholash va chora-tadbirlardan keyin qoldiq xavfni qayta baholash nazarda tutilgan. Shu bois energiya samaradorligi tashkilotlarida komplayens funksiyasi texnik mutaxassis, xarid bo‘linmasi, ichki audit va yuridik xizmat bilan birgalikda ishlashi lozim [8].

8. Shaffoflik va ko‘p tomonlama hisobdorlik. Shaffoflik korrupsiyaga qarshi kurashishning eng ko‘p tilga olinadigan mexanizmlaridan biri. Biroq ma'lumotning oddiy e'lon qilinishi korrupsiyani avtomatik bartaraf etmaydi. Ma'lumot to‘liq, tekshiriladigan, taqqoslanadigan, o‘z vaqtida e'lon qilingan va jamoatchilik tomonidan foydalanish mumkin bo‘lgan shaklda bo‘lishi kerak. Aks holda “formal ochiqlik” mavjud bo‘lib, amalda hisobdorlik yuzaga kelmasligi mumkin.

9. Manfaatlar to‘qnashuvi va kontragentlar halolligi ta'minlash. Energiya samaradorligi loyihalarida manfaatlar to‘qnashuvi ko‘p hollarda korrupsiya jinoyatidan oldin paydo bo‘ladigan xavfli vaziyat sifatida namoyon bo‘ladi. Qaror qabul qiluvchi shaxsning qarindoshi yoki affillangan kompaniyasi tenderda ishtirok etishi, energiya auditorining uskuna yetkazib beruvchi bilan moliyaviy aloqasi, texnik ekspertning muayyan texnologiya ishlab chiqaruvchisi bilan manfaatdorligi qaror xolisligiga ta'sir qilishi mumkin.

10. Korrupsiyaga sabab bo‘luvchi ma'naviy va axloqiy omillarni bartaraf etish. Korrupsiyaga sabab bo‘luvchi ma'naviy omillar halollik, adolat, vijdon, huquqiy ong va korrupsiyaga nisbatan ijtimoiy munosabat bilan bog‘langan. Bu omillarni inkor etib bo‘lmaydi, ammo korrupsiyani “axloqi past shaxslar” xatti-harakatining natijasi sifatida tor tushuntirish ilmiy jihatdan yetarli emas. Chunki bir xil shaxsiy qadriyatlarga ega odamlar turli institutsional muhitda turlicha qaror qabul qilishi mumkin.

11. Korrupsiya xavflarini aniqlash, baholash va prognoz qilish orqali korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish. Mazkur yondashuv barcha xalqaro standartlar (BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, FATF tavsiyalari, ISO 37001 “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmentlari” va boshqalar) tomonidan belgilangan.

Energiya tejamkorligi sohasida ham korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash va bartaraf etish profilaktik sikl asosida tashkil qilinishi kerak deb hisoblaymiz.

Birinchi bosqichda funksional jarayonlar xaritalashtiriladi va har bir jarayonda qaror qabul qiluvchi subyekt, resurs, diskretsiya, manfaatdor tomonlar, ma'lumot manbalari va nazorat nuqtalari aniqlanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Ikkinchi bosqichda korrupsiyaviy xavf-xatar sxemalari ishlab chiqiladi: “**kim – qaysi vakolatdan – qaysi manfaat uchun – qanday usulda – qanday nazorat zaifligidan foydalanib**” qonunga xilof ta'sir koʻrsatishi mumkinligi belgilanadi.

Uchinchi bosqichda ishlab chiqilgan korrupsiyaviy xavf-xatar sxemalar ehtimoli va oqibati baholanadi. Bunda, energiya samaradorligida oqibatni faqat byudjet zarari bilan oʻlchash yetarli emas; energiya sarfining kamaymasligi, texnik xavfsizlik, obyektning ekspluatatsiya xarajatlari, ekologik natija, raqobat muhiti va jamoat ishonchiga ta'sir ham inobatga olinishi lozim.

Toʻrtinchi bosqichda bartaraf etish imkoniyati boʻlmagan korrupsiyaviy sxemalar, ya'ni qoldiq xavf-xatarlar boʻyicha nazorat choralari boʻyicha belgilanadi.

Ushbu sikl Oʻzbekistondagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyotining mantigʻi bilan uygʻun boʻlib, energiya sohasi uchun maxsus indikatorlar bilan toʻldirilishi mumkin. Bunday indikatorlarga raqobatsiz xaridlar ulushi, bir benefitsiarga toʻgʻri keluvchi shartnomalar konsentratsiyasi, texnik spetsifikatsiyaga shikoyatlar, bozor narxidan ogʻish, energiya auditi va qayta audit natijalari oʻrtasidagi farq, rejalashtirilgan va haqiqiy energiya tejami oʻrtasidagi tafovut, subsidiyalar konsentratsiyasi va manfaatlar toʻqnashuvi aniqlangan qarorlar ulushi kirishi mumkin.

Shuning, ushbu sohada korrupsiyani bartaraf etishning nazariy jihatlari prognozlashtirish uslublariga ham tayanadi. Shu sababli, prognozlashda faqat sodir etilgan korrupsiya holatlari statistikasiga suyanish yetarli emas, chunki korrupsiya latent xususiyatga ega. Shu sabab xaridlar ma'lumotlarining tahlili, anomaliyalarni aniqlash, kontragentlar tarmogʻini tahlil qilish, murojaatlar, audit natijalari, xodimlar soʻrovlari va ochiq ma'lumotlarni birlashtiruvchi koʻp manbali yondashuv maqsadga muvofiq. Raqamli tahlil shubhali nuqtani aniqlashi mumkin, ammo avtomatik tarzda “korrupsiya sodir etilgan” degan yuridik xulosa bermaydi; uning natijasi keyingi tekshirish uchun xavf-xatar signali sifatida qaralishi lozim.

Shundan kelib chiqib, energiya tejamkorligi sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bartaraf etishning integratsiyalashgan modelini taklif qilishimiz mumkin. Bunda, korrupsiyaviy xavfni kuchaytiruvchi omillar va ularni neytrallashtiruvchi institutlar oʻrtasidagi munosabatga asoslanadi.

KX = (IM + DV + AA + MT + FK) – (NR + FA + TSH + MB + HM)

bunda: KX – korrupsiya xavfi; IM – iqtisodiy manfaat; DV – diskretsion vakolat; AA – axborot asimmetriyasi; MT – manfaatlar toʻqnashuvi; FK – funksiyalar konsentratsiyasi; NR – normativ reglamentlashtirish; FA – funksiyalarni ajratish; TSH – texnologik va ma'lumotlar shaffofligi; MB – manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish; HM – hisobdorlik va monitoring.

Mazkur formula matematik hisoblash vositasi emas, balki xavfni shakllantiruvchi va uni kamaytiruvchi omillarni tizimli ifodalovchi konseptual model hisoblanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Birinchi komponent – normativ reglamentlashtirish. Har bir qaror boʻyicha vakolat, mezon, muddat, zarur hujjat, qarorning asoslanishi va shikoyat qilish mexanizmi oldindan belgilanishi lozim. Texnik ekspertga professional tanlov uchun zarur diskretsiya saqlanadi, ammo ushbu tanlovning sabablari hujjatlashtiriladi va qayta tekshirilishi mumkin boʻladi.

Ikkinchi komponent – funksiyalarni ajratish va institutsional mustaqillik. Loyihani tanlagan shaxs uning xaridini yakka oʻzi nazorat qilmasligi, audit oʻtkazgan subyekt manfaatdor yetkazib beruvchi bilan bogʻliq boʻlmasligi, obyektni qabul qilishda mustaqil texnik baholash elementi mavjud boʻlishi kerak. Bu “four-eyes principle”ga yaqin boʻlsa-da, faqat ikkinchi imzo bilan cheklanmaydi; ikkinchi nazorat subyekti real mustaqil kompetensiyaga ega boʻlishi lozim.

Uchinchi komponent – texnologik shaffoflik va audit izi. Elektron xarid, smart hisoblagich, avtomatik monitoring va raqamli reyestrlar insonning toʻgʻridan-toʻgʻri aralashuvini kamaytiradi. Lekin raqamli tizimda kim, qachon va qanday maʼlumotni oʻzgartirganini koʻrsatuvchi audit trail, kirish huquqlarini ajratish, maʼlumotni verifikatsiya qilish va anomaliyalarni avtomatik signallash mexanizmlari boʻlmasa, korrupsiya “raqamli shakl”ga koʻchishi mumkin.

Toʻrtinchi komponent — manfaatlar toʻqnashuvi va kontragentlar halolligini boshqarish. Xodimning shaxsiy manfaatdorligini oshkor etishi, qarordan chetlashishi, kontragentning benefitsiar mulkdorini tekshirish va affillanganlik tarmogʻini tahlil qilish bir-biri bilan bogʻliq jarayon sifatida tashkil qilinishi kerak. Bu yerda formal deklaratsiyadan koʻra qaror qabul qilishda manfaat taʼsirini real bartaraf etish asosiy maqsad boʻladi.

Beshinchi komponent – kollektiv hisobdorlik va qoldiq xavf monitoringi. Korrupsiya profilaktikasi faqat komplayens boʻlinmasi zimmasiga yuklanmasligi lozim. Texnik xizmat, xarid, moliya, yuridik xizmat, ichki audit, komplayens, tashqi audit va jamoatchilik nazorati oʻzaro maʼlumot almashishi kerak. Choralar amalga oshirilgandan keyin “xavf yoʻqoldi” degan formal xulosa emas, qoldiq xavf qayta baholanadi va zarur boʻlsa nazorat dizayni oʻzgartiriladi.

Oltinchi komponent – halollik madaniyati va himoyalangan xabar berish mexanizmi. Xodim qoidabuzarlikni xabar qilganda manfaatdor rahbarga qaram boʻlib qolmasligi, xabar tekshirilishi va qasosdan himoya mexanizmlari ishlashi zarur. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi davlat xaridlarida shaffoflik, davlat xizmatining halolligi, xususiy sektorda profilaktika va jamoatchilik ishtirokini korrupsiyaga qarshi tizimning muhim elementlari sifatida belgilaydi [9,10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqot natijalari energiya tejamkorligini taʼminlash va energiya samaradorligini oshirish sohasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning kelib chiqishini faqat iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy yoki maʼnaviy omillardan biri bilan

izohlash yetarli emasligini koʻrsatdi. Korrupsiyaviy xavf, odatda, katta iqtisodiy manfaat, keng yoki yetarlicha nazorat qilinmaydigan diskretsion vakolat, texnik axborot asimmetriyasi, manfaatlar toʻqnashuvi va funksiyalar konsentratsiyasi bir jarayonda toʻplangan hollarda kuchayadi.

Shu sabab energiya samaradorligi sohasida korrupsiyaga qarshi siyosat reaktiv modeldan – huquqbuzarlik sodir etilgandan keyin aniqlash va jazolashdan — preventiv va xavf-xatarga asoslangan modelga oʻtishi lozim. Bunday model qaror qabul qilish mezonlarini aniq belgilash, funksiyalarni ajratish, davlat xaridlarining toʻliq hayot siklini nazorat qilish, kontragentlar benefitsiar mulkdorlarini tekshirish, energiya auditi va texnik nazoratning funksional mustaqilligini ta'minlash, energiya tejash natijalarini qayta tekshiriladigan usulda hisoblash, manfaatlar toʻqnashuvini boshqarish va qoldiq xavfni muntazam qayta baholashni oʻz ichiga oladi.

Tadqiqot natijasi boʻyicha tomonidan taklif etilgan integratsiyalashgan model energiya tejamkorligi sohasida korrupsiyani “axloqiy kamchilik” yoki “alohida pora holati” sifatida emas, qaror dizayni, resurs taqsimoti, axborot, manfaat va hisobdorlik oʻrtasidagi tizimli nomutanosiblik sifatida baholashni taklif etadi. Mazkur yondashuv korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni bartaraf etishning ilmiy-nazariy asosini jazoning muqarrarligi bilan bir qatorda korrupsiya sodir etish imkoniyatini institutsional jihatdan qisqartirishga bogʻlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2024 йил 7 августдаги ЎРҚ–940-сон «Энергияни тежаш, ундан оқилона фойдаланиш ва энергия самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги Қонуни. Қонун энергия сервис компаниялари, энергия аудити, дастур ва лойиҳаларни молиялаштириш, мониторинг ва давлат назорати институтларини белгилайди. URL: .

2. Ўзбекистон Республикасининг 2017 йил 3 январдаги ЎРҚ–419-сон «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуни, хусусан 3, 19¹, 19², 21–23-моддалар (амалдаги таҳрир). URL: .

3. Саттаров А.С. Энергия тежамкорлик ва энергия самарадорлигини оширига оид қонунчиликни такомиллаштириш. “Ўзбекистон Республикаси Ҳуқуқни муҳофаза қилиш академияси Ахборотномаси” илмий-амалий, ижтимоий-ҳуқуқий нашр. -Т.: 10.03.2024, №3 (59) 2024. 34-37 бет.

4. Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари, давлат муассасалари ва давлат улуши 50 фоиздан юқори ташкилотлар фаолиятида коррупциявий хавф-хатарларни аниқлаш ва баҳолаш услубиёти, рўйхат рақами 3383, 31.08.2022 (амалдаги таҳрир). URL: .

5. Саттаров А.С. Improving prosecutor control over law enforcement in the field of energy saving and enhancement of energy “Eurasian journal of law, finance and applied sciences

Innovative Academy Research Support Center”. ISSN:2181-2853. Volume 4, Issue 10, October 2024. Pp.19-31.

6. Becker G.S. Crime and Punishment: An Economic Approach // Journal of Political Economy. 1968. Vol. 76, No. 2. P. 169–217. DOI: 10.1086/259394. URL: .

7. Klitgaard R. Controlling Corruption. Berkeley: University of California Press, 1988. 230 p. URL: .

8. Коррупциявий хавф-хатарларни аниқлаш ва баҳолаш услубиёти (3383-сон, 31.08.2022) хавфларни функция ва жараёнлар кесимида баҳолаш ҳамда чоралардан кейин қолдиқ хавфни қайта баҳолаш мантиғини назарда тутади. URL: .

9. United Nations Convention against Corruption, 2003, хусусан давлат сектори, давлат харидлари, хусусий сектор ва жамоатчилик иштирокига оид 7–13-моддалар. URL: .

10. Саттаров А.С. Энергетика соҳасида юзага келадиган коррупцияон ҳолатлар ва унинг олдини олиш чоралари. “Ҳуқуқ ва бурч+” журнали. Тошкент. ISSN:3093-8546. №3, 2025. 90-97 бет.